



XIX ASRNING OXIRLARIDA BUXORO, XIVA, QO'QON XONLIKLARIDA TA'LIM-TARBIYA, MAKTAB, FAN VA MADANIYAT. USHBU DAVRDAGI RESPUBLIKAMIZ HUDUDIDA OCHILGAN ILK MAKTABLAR VA UNDAGI TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARI

Uralova Gulbahor O'ktamovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrası dotsenti, PhD

Salayeva Charosxon Mahmud qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18182031>

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxirlarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari hududida ta'lim-tarbiya tizimi, maktab va madrasalar faoliyati, fan va madaniyatning rivojlanish holati yoritilgan. Shuningdek, ushbu davrda respublikamiz hududida tashkil etilgan ilk maktablar, ulardagi ta'lim-tarbiya jarayonlari, an'anaviy va jadid ta'limi o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Maqolada eski maktablar faoliyati bilan bir qatorda, yangi usuldagi maktablarning paydo bo'lishi va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: XIX asr, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, maktab, madrasa, jadid maktablari, ta'lim-tarbiya, fan va madaniyat.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrida Turkiston o'lkasida uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib rivojlangan ta'lim tizimi davom etdi. XIX asrning o'rtalaridan boshlangan istilochilik yurishlari natijasida mustamlakaga aylangan Turkistonda mahalliy aholining an'anaviy ta'lim tizimida o'zgarishlar yuz bera boshladi. O'lkaning boshqa sohalarisingari ta'lim tizimida ham mustamlakachi hukumatning manfaatlarini aks ettiruvchi siyosat yurgizildi. Buni, eng avvalo, mahalliy aholini ruslashtirish maqsadida tashkil qilingan rus-tuzem maktablarining ochilishi va ular sonining jadal sur'atlarda ko'paytirib borilganligida ko'rishimiz mumkin. Mustamlaka davrigacha Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi islom dini qoidalari asosida tashkil qilingan bo'lib, maktab va madrasalarda diniy ta'lim bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Boshlang'ich ta'lim maktablarda 5-6 yil davomida o'qitilib, arab alifbosi, harflarning o'qilishi, talaffuzi o'rgatilgan. Keyingi bosqichda Qur'on suralari va oyatlaridan iborat bo'lgan «Haftiyak» (ya'ni Qur'oni Karimning yettidan biri) kitobi o'qitilgan. So'ng «Chor kitob» (to'rt kitob), undan keyin So'fi Olloyorning «Risolai aziza», «Sabot ul-ojizin» kitoblari o'qitilgan. Bu kitoblar, asosan, o'quvchilar tomonidan yod olingan. So'fi Olloyor asari she'riy tarzda yozilgan bo'lib, unda avliyolar, payg'ambarlar hayoti haqidagi ma'lumotlar aks etgan. O






‘quvchilar nafaqat o‘zbek tilidagi, balki fors shoiri Hofizning «Xo‘ja Hofiz» devonini ham o‘rganishgan. Oliy ta‘lim madrasalarda berilib, unda diniy-huquqiy bilimga ega bo‘lgan mutaxassis tayyorlangan. Madrasalarni bitiruvchilaridan islom qoidalari, Qur‘oni An‘anaviy maktabda ta‘lim muassasalari Karim oyatlari va suralarning sharhlarini to‘liq o‘zlashtirish talab qilingan. Qorixonalarda Qur‘oni Karim yod olingan. Ayollar alohida o‘qitilib, ularga Qur‘oni Karim, oila masalalari, odob-axloq va tarbiyadan saboq beruvchi otinlar ta‘lim berganlar. Mustamlaka davrida eski maktablar saqlanib qolgan, ammo bu maktablar hukumat e‘tiboridan chetda qolib, ularga hech qanday mablag‘ ajratilmagan.

XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari hududida ta‘lim-tarbiya tizimi asosan an‘anaviy maktab va madrasalar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular jamiyat ma‘naviy hayotida muhim o‘rin egallagan. Boshlang‘ich ta‘lim maktablarda berilib, bolalarga avvalo o‘qish-yozish, Qur‘on oyatlarini yod olish, diniy aqidalar, axloq-odob qoidalari o‘rgatilgan. Ta‘lim jarayonida eski usul — “usuli qadim” hukmron bo‘lib, unda asosan yodlashga asoslangan metod qo‘llanilgan, fanlar doirasi esa tor bo‘lgan. Madrasalarda esa arab tili, fiqh, tafsir, hadis, mantiq, falsafa kabi diniy-ilmiy fanlar o‘qitilib, ular oliy ta‘lim muassasalari vazifasini bajargan. XIX asrning oxirlariga kelib, Rossiya imperiyasining Turkiston hududiga kirib kelishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Shu davrda respublikamiz hududida rus-tuzem maktablari ochildi, bu maktablarda mahalliy bolalar bilan birga rus tili, arifmetika, geografiya kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitila boshlandi. Shuningdek, jadidchilik harakati ta‘sirida “usuli jadid” maktablari tashkil etilib, unda yangi o‘qitish usullari, darsliklar va fanlar joriy qilindi. Jadid maktablarida ta‘lim-tarbiya jarayoni tushunishga, savodxonlikni tez va samarali oshirishga, yoshlarni ilm-fan va madaniyatga yaqinlashtirishga qaratilgan edi. Bu davr maktablari va madaniy-ma‘rifiy islohotlar keyinchalik o‘zbek xalqining milliy uyg‘onishi, fan va madaniyat taraqqiyotiga muhim zamin yaratdi.

XIX asr oxirida Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklarida ta‘lim diniy (maktablar, madrasalar) va dunyoviy yo‘nalishlarni qamrab olgan; madrasalarda matematika, fizika, tarix kabi fanlar o‘qitilgan, hunarmandchilik maktablari bo‘lgan, oilaviy tarbiya Qur‘on, milliy hunarmandchilik, qurol-aslahaga yo‘naltirilgan, bu davrda ilk yevropacha maktablar ochilib, milliy ta‘lim tizimiga yangi oqim kiritilgan.

Bu davrda o‘lkadagi mahalliy ziyolilar, jadidchilik harakatining namoyandalari tomonidan milliy madaniyat, diniy e‘tiqod, mahalliy an‘analar asosidagi yangi maktablar ochilgan edi. Bunday yangi usuldagi jadid maktablarid tarix, matematika, geografiya, ona tili kabi fanlar ham o‘qitilgan. Yangi usul






maktablarining diniy maktab va madrasalardan yana bir farqi shunda bo'lganki, unda nafaqat islom dini va tarixi, balki mahalliy - turkiy xalqlar tarixi bo'yicha ham ta'lim berilgan. Turkistonda dastlab jadid maktablari Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Xiva kabi shaharlarda ochilgan edi. Yangi usul maktablari jadidchilik harakati, uning namoyandalari faoliyatlari bilan birga mahalliy aholining umummilliy g'oyalari, o'zbek xalqining milliy-ma'naviy birligini mustahkamlashga xizmat qildi. Jadid maktablarining ta'lim tizimida o'quvchilarga vatanga muhabbat, milliy davlatchilik, milliy madaniyat, xalq birligi oldida mas'uliyatini his qilish, yurt ravnaqi uchun mehnat qilishga va kurashishga chorlovchi g'oyalar singdirildi. Jadidlarning yangi usul maktablari dan zamonasining yetuk olimlari, adabiyotshunoslari, rassomlari, shoirlari, san'atkorlari, maorif sohasi mutaxassislari yetishib chiqdi. Jumladan, shoir akademik G'afur G'ulom, shoir va dramaturg Uyg'un, Oybek kabi davlat va madaniyat arboblari ko'rsatish mumkin.

Jadidlarning yangi usul maktablaridagi milliy g'oyalarga asoslangan ta'lim berishi o'lkada hukmron bo'lgan mustamlakachi hukumat tomonidan kuzatuv va nazoratda bo'lgan. Ma'muriyat jadidlarning ta'lim tizimida olib borayotgan faoliyati Mustamlakachi hukumatning yangi usul maktablariga qarshi kurashi o'lkada mustamlakachilik siyosatiga jiddiy qarshilik ko'rsata oladigan harakatlantiruvchi kuch ekanligini angladi va ularning faoliyatiga ochiqdan ochiq qarshilik ko'rsata boshladi. Jadidlar faoliyati qattiq ta'qibga olindi. Har qanday yo'l bilan bo'lsa ham yangi usul maktablari faoliyatiga zarba berishga harakat qilindi. O'lkada ma'muriyat tomonidan chiqariladigan matbuot sahifalarida yangi usul maktablari tanqid etilib, ularning faoliyatiga noto'g'ri baho berilgan maqolalar e'lon qilindi. Dastlab jadid maktablarida turk va fors adabiyotlaridan foydalanish taqiqlab qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxirlarida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya tizimi an'anaviy maktab va madrasalar asosida shakllangan bo'lsa-da, aynan shu davrda yangi usuldagi maktablar paydo bo'lib, fan va madaniyat rivojida muhim burilish yasadi. Ushbu jarayonlar bugungi zamonaviy ta'lim tizimining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jayev A. Jadidchilik harakati va ma'rifatparvarlik g'oyalari — Toshkent.
2. Karimov N. Jadidlar va milliy uyg'onish — Toshkent, Fan nashriyoti.
3. Boboxo'jayev S. O'zbekistonda maktab va ta'lim tarixi — Toshkent.
4. Is'hoqov M. Turkistonda jadid maktablari — Toshkent.





5. O'zbekiston tarixi (III-IV jildlar),— O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashrlari.
6. O'zbekiston tarixi (9-sinf)- Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashr

